

**MUSIQA MAKTABLARIDAGI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA NOTA
O‘QISH MASHG‘ULOTLARI**
(Fortepiano sinfi misolida)

*Buxoro davlat universiteti
Tosheva Durdona*

Annotatsiya

Ushbu maqola yoshlarimiz tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan musiqa san’atidagi nota o‘qish masalasiga qaratilgan bo‘lib, unda bolalardagi nota o‘qish va ularni to‘g‘ri ijro qilish qobiliyatini oshirishga, musiqiy hissiyotni kuchaytirish va ma’naviy ongni rivojlantirishga qaratilgan.

Аннотация

Эта статья посвящена вопросу чтения нот в музыкальном искусстве, которое играет важную роль в воспитании нашей молодежи, с упором на улучшение способности детей читать ноты и правильно их исполнять, а также на укрепление музыкального чувства и развитие духовного сознания.

Annotation

This article is aimed at the issue of note reading in the art of music, which plays an important role in the upbringing of our youth, in which it is aimed at increasing the ability of children to read notes and play them correctly, strengthening musical sensation and developing spiritual awareness.

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, qobiliyat, iste’dod, partiya, nota,*

Nota matnini o‘qish - murakkab va serqirra jarayondir. Tahlillar natijasiga ko‘ra, notadan erkin o‘qiy bilish ko‘nikmalarini hosil qilishda o‘quvchining ta’lim olish jarayoni har tomonlama uyg‘unlikda kechmog‘i darkor. Notadano‘qiy bilish ko‘nikmalari musiqa soxasining turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarining barchasida hosil qilinishi kerak. Fortepianoda notani o‘qiy bilish turli mutaxassislikdagi musiqachi uchun zarur va umumiy o‘quv jarayoniga bunday tarzidagi yondoshuv o‘zini oqlaydi. Polifonik va garmonik eshituv qobiliyatni rivojlantirishda fortepianoning ahamiyati nihoyatda katta. Ko‘p asarlar solo va fortepiano uchun yozilganligini ham e’tiborga olish muhim, bunda badiiy timsol bir voqtning o‘zida ikki musiqiy qatlamda rivojlantiriladi. Ansambl tarzida ijro etiluvchi asarlarni o‘rganishda o‘quvchi nota matni bilan muntazam ishlaydi. Natijada o‘quvchi ham o‘zining asosiy cholg‘usi, ham fortepianoda notadan o‘qish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Darslarni nota matnini o‘qish bilan boshlash mumkin emas, negaki eng sodda nota misollarini o‘qish uchun ham ma’lum darajada tayyorgarlik kerak bo‘ladi. Shuning

uchun notadan o'qishni o'rgatishdan avval o'quvchini shu jarayonga tayyorlash ishlari olib borilishi muximdir. O'qitishning boshlangich bosqichi vazifalari quyidagilardan iborat: musiqa tinglash, musiqiy tafakkur qilishqobiliyatini rivojlantirish, tinglov malakasini kengaytirish, musiqaning ifodaviy vositalarini ajrata bilish, ritm va lad haqida tinglov orqali tasavvur hosil qilish, cholg'u yoki ovoz ijrosida tinglangan materialni chalish va hokazo.

Nota matnini o'qishda metr kismlarni tinglay bilish nihoyatda muhimdir. O'quvchi musiqiy nota yozuvi bilan tanishgandan so'ng unga musiqiy iboralar haqida ma'lumot berish kerak. Bu jarayonda ko'plab nota misollarini ko'rsatish o'rinlidir: ibora - ma'lum bir musiqiy fikr bo'lib, bir nafasda bir qator metr qismlarini jamlaydi; har bir ibora o'zining dinamik tizimiga ega. O'quvchi musiqiy asarlarning shaklini o'rganishida musiqiy iboralarga alohida e'tibor berilishi albatta bejiz emas.

Mutaxassislikdan dars beruvchi o'qituvchi o'quvchini dastlabki o'rganish bosqichlarida musiqiy-tarbiyaviy ishini jildiylik bilan olib borishi darkor. Bunda tanish bo'lgan kuylarni tanlab transpozisiya qilish. Gammalarni turli ritmlarga solib ijro etish (gammasiyat kuyga xarakterli o'zgarish kiritish uchun) kabi mashqlar umumiy rivoj uchun muhimdir.

Ma'lum darajadagi tayyorgarliklari so'ng o'quvchi notadan o'qish mashqlarini bajarishi mumkin. Applikatura ko'nikmalari, tovushlar munosabati haqilatasavvurga ega bo'lgan o'quvchining ijro malakasi kengayib boradi va buning natijasida ijroda aniqlik ortib boradi. Ma'lum musiqiy materialni tinglab, so'ngra uni notaga qaramay cholg'uda chalib ko'rish kabi mashqlar musiqiy tasavvurni yanada rivojlantiradi. O'qishning ushbu bosqichidan notadan o'qish malakasi polifonik va garmonik tinglash qobiliyati, musiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq holda ortib boradi.

Polifoniya uslubidagi mashqlar ustida ishlash (avval ikki ovozda mashklar) jarayoni - notadan o'qishni o'rganishlagi navbatdagi bosqichlardan biridir. O'quvchi polifonik asarning har bir ovozini o'zi ijro etadi (tashqi yordamsiz): avval har bir ovoz alohida o'rganiladi, so'ngra bir ovoz chalinadi, ikkinchisi esa ovoz yorlamida ijro qilinadi. Har bir mashqda musiqiy iboralarda ifodaviylikni orttirib borish zarur. Undan so'ng barcha avalar baravar ijro etiladi.

Fortepiano uchun yozilgan ikki va to'rt qo'l bilan ijro etiluvchi asarlarni o'rganishda garmonik eshitish qobiliyati aktiv rivojlanadi. Bunday mashqlar nafaqat fortepiano ijrochilari. balki o'zga cholg'u ijrochilari uchun ham nihoyatda muhim va foydali: fortepiano (jo'rsoz) birorta solo cholg'u (skripka, klarnet, valtorna va boshqalar) ijrosi; vokal asarining fortepiano jo'rliqidagi ijrosi; kuy va akkompanementin transpozisiya qilish va xokazo. "Akkompanementli" deb yuritiluvchi mashklar yordamida ansambl tarzida ijro etiluvchi asarlarni potadan o'qiy bilish ko'nikmalari hosil qilinadi. O'quvchi musiqa maktabini tamomlagandan so'ng

bunday ko‘nikmalar albatta mutaxassislik ish jarayoni uchup muhim (agar musiqa kasb sifatida tanlanmasa san'at olami bilan aloqani uzmaslikka yordam beradi). Mavjud kalitlarda yozilgan nota matnini o‘qiy biladigan ijrochilar fortepianoda transpozisiya qiluvchi cholg‘ular partiyalarini o‘qiy oladigan har bir partiyani birlashtirgan holda asarni to‘liq holda xam ijro eta oladi. Bunday ijro kompozitorning badiiy maxoratini to‘liq ochib berilishida ahamiyatlidir. Har bir musiqachi, ya'ni u cholg‘uchi, xonanda, dirijyor bo‘lishidan qat’iy nazar ansambl tarzida yozilgan asarini fortepianoda chala olsa, u o‘zining partiyasini ifodaviy mohiyatini to‘liq tushuna oladi va bu partiyasi yanada tozaroq ijro etadi. Solo partiyasini jo‘rsoz bilan birgalikda ijro qila olish esa kopsertmeyster bilan ishlash jarayoniga katta yoram berali. Yuqorida qayd etilgan turli ko‘rinishlardagi mashqlarsiz musiqiy fakturaning ko‘pgina unsurlari ochib berilmaydi, garmonik bo‘sklar eshitilmaydi, asar badiiy timsolining ayrim qirralari tushunilmay qoladi.

O‘quv jarayoninin dastlabki yillarida hosil qilingan ko‘nikmalarni musiqa adabiyoti darslarida qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilar ko‘rgazma matsrialini o‘zlari ansambl, Solo va akkompament shakllarida ijro etishlari mumkin. Musiqa adabiyoti darslarini o‘tkazishla o‘quvchilarning bunday tarzda bevosita qatnashishlari ham tarbiyaviy, ham notadan o‘qiy bilish ko‘nikmalarini rivojlantirilishida nihoyatda muhim. Nota matnini o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda bosqichma-bosqich va tizimli yondoshuv talab kilinadi. Shuning uchun kasbiy darajadagi o‘quv yurtlarida, ayniqsa pedagoglik yo‘nalishlarida turli nashrlarni o‘rgatish metolikasi, jumladan nota matnini o‘qitishni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. Вестник науки и образования, (21-2 (99)), 55-58.
2. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку](#). У.ХРамазонова
MultidisciplinaryJournalofScienceandTechnology3(5),45-46
3. Holmurodovna R. U. I., Oqila S. Makom art is a priority in the musical culture of Uzbekistan 3//Проблемы педагогики. – 2020. – №. 2 (47). – С. 87-88.
4. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
5. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
6. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An’anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o‘rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
7. Rahmatova M. O., qizi Aslonova N. I. Today's Makom Traditions Spiritual Significance //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 340-342.

8. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.
9. Рамазонова Ў. Х. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ГУРУХ БИЛАН ИШЛАШ ВА УНИ БОШҚАРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.
10. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
11. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1. – С. 88-91.
12. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
13. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
14. Features of Sound Recording in the Uzbek Singing Art
- 15 U H Ramazonova. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795 (546X), 58
- 16 Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 84-86.
- 17 Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
- 18 Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне” тутовое дерево-балх” и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
- 19 Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).
- 20 Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
- 21 Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
- 22 Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.
- 23 Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),